




TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY  
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA  
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART  
**KASB TA'LIMI USTASI**



“Kasb ta’limi ustasi (ishlab chiqarish, transport, qishloq xo’jaligi va xizmat ko’rsatish sohalari bo’yicha)” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

# KASBIY STANDART

## Kasb ta'limi ustasi (ishlab chiqarish, transport, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha)

---

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0016



### I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagoglari kasblari bo'yicha kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, kasblar bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'limga oid faoliyat, shu jumladan kasb ta'limi ustasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish hamda ichki nazoratni amalga oshirish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

androgogika – kattalar ta'limi haqidagi fan;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

davlat akkreditatsiyasi – davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta'lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan, rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq

tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda va ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish qobiliyati;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mahorat – bilim va kompetensiyalarni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish qobiliyati;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmui bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka berish – rasmiy ta'lim, norasmiy va informal ta'lim orqali olingan bilim va ko'nikmalarni baholash jarayoni;

mehnat faoliyati turi – kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo'lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning majmuasi;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

modul – o‘quv dasturining alohida bo‘lagi;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, rasmiy ta‘limga qo‘shimcha yoki uning muqobil shakli bo‘lgan ta‘lim turi;

nodavlat ta‘lim tashkiloti – litsenziya yoki xabardor qilish tartibida ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

o‘quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, metodik qo‘llanma va multimediali ilovalardan iborat majmua;

pedagog – bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi, maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxs;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilim va mahoratlar;

ta‘lim – bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta‘lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta‘lim tashkilotlari faoliyatining davlat talablari va standartlariga muvofiqligini baholash shakli;

ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta‘lim oluvchilar, ularning qonuniy vakillari va pedagog xodimlar;

tarbiya – shaxsni ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan tizimli jarayon.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-sentabr “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevral “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabr “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-son qarori, O‘zMSt 641:2025 (IFUT-2.1);

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

T/r – Tartib raqami.

## II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Kasb ta'limi ustasi (ishlab chiqarish, transport, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha)	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Kasbiy ta'lim sohasida ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, tegishli toifadagi transport vositalarini xavfsiz boshqarishni o'rgatish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q seksiya: Ta'lim 85 Ta'lim 85.3 O'rta va o'rta ta'limdan keyingi ta'lim 85.32 Professional o'rta ta'lim 85.32.0 Professional o'rta ta'lim	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ta'lim oluvchilarning bilimlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim va kompetensiyalarni shakllantirish, ularning o'quv natijalariga erishishini ta'minlash, pedagogik sharoitlarni yaratish, ta'limni chuqurlashtirish va ehtiyojlarini qondirish, ta'lim dasturlarini amalga oshirilishini ta'minlash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	<b>Kasblar kodi va nomi:</b>	<b>TMR dagi malaka darajasi:</b>
		23202004 Ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida kasb ta'lim ustalari	6
		23202008 Qishloq xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari	6
		23202009 Transport xizmatlari sohasida kasb ta'lim ustalari	6
		23202010 Xizmat ko'rsatish sohasida kasb ta'lim ustalari	6

### III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	23202004 Ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalarida kasb ta'lim ustalari	A1.6	Amaliy kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish va olib borish	A1.01.6	Ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlariga oid amaliy mashg'ulotlarni tasdiqlangan ta'lim dasturlar asosida tashkil etish
				A1.02.6	O'quvchilarga texnologik operatsiyalarni, uskunalar va mexanizmlardan xavfsiz hamda samarali foydalanish usullarini amaliy tarzda o'rgatish
				A1.03.6	Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish
		A2.6	O'quvchilarning amaliy tayyorgarligi va mehnat faoliyatini nazorat qilish	A2.01.6	O'quvchilarning ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish jarayonini nazorat qilish va texnologik intizomga rioya etilishini ta'minlash
				A2.02.6	Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilinishini ta'minlash
				A2.03.6	O'quvchilarning amaliy faoliyati natijalarini baholash, xatolarini tahlil qilish va kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish
2	23202008 Qishloq xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari	B1.6	Qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida amaliy kasbiy ta'limni tashkil etish va olib borish	B1.01.6	Qishloq xo'jaligi (dehqonchilik, chorvachilik, issiqxona, agroservis) yo'nalishlariga oid amaliy mashg'ulotlarni tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida tashkil etish
				B1.02.6	O'quvchilarga qishloq xo'jaligi texnologiyalari, texnika va uskunalaridan xavfsiz hamda samarali foydalanish usullarini amaliy tarzda o'rgatish
				B1.03.6	Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish

		B2.6	O'quvchilarning amaliy faoliyatini nazorat qilish va baholashni ta'minlash	B2.01.6	O'quvchilarning qishloq xo'jaligiga oid ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish jarayonini nazorat qilish va texnologik intizomga rioya etilishini ta'minlash
				B2.02.6	Amaliy mashg'ulotlarda mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi, veterinariya-sanitariya hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini ta'minlash
				B2.03.6	O'quvchilarning amaliy faoliyati natijalarini baholash, xatolarini tahlil qilish va kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish
3	23202009 Transport xizmatlari sohasida kasb ta'lim ustalari	D1.6	Transport xizmatlari yo'nalishida amaliy kasbiy ta'limni tashkil etish va olib borish	D1.01.6	Transport xizmatlari (yo'lovchi va yuk tashish, servis va logistika)ga oid amaliy mashg'ulotlarni tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida tashkil etish
				D1.02.6	O'quvchilarga transport vositalari, infratuzilma obyektlari hamda xizmat ko'rsatish jarayonlaridan xavfsiz va samarali foydalanish usullarini amaliy o'rgatish
				D1.03.6	Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning transport xizmatlariga oid kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish
		D2.6	O'quvchilarning amaliy faoliyatini nazorat qilish, xavfsizlik va baholashni ta'minlash	D2.01.6	O'quvchilarning transport xizmatlariga oid ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish jarayonini nazorat qilish va texnologik hamda xizmat intizomiga rioya etilishini ta'minlash
				D2.02.6	Amaliy mashg'ulotlar jarayonida transport xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishini ta'minlash

				D2.03.6	O'quvchilarning amaliy faoliyati natijalarini baholash, aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish
4	23202010 Xizmat ko'rsatish sohasida kasb ta'lim ustalari	E1.6	Xizmat ko'rsatish yo'nalishida amaliy kasbiy ta'limni tashkil etish va olib borish	E1.01.6	Xizmat ko'rsatish sohasiga (savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar, mehmonxona va servis xizmatlari) oid amaliy mashg'ulotlarni tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida tashkil etish
				E1.02.6	O'quvchilarga mijozlar bilan ishlash, xizmat ko'rsatish texnologiyalari va servis jarayonlarini sifatli hamda madaniyatli bajarish usullarini amaliy tarzda o'rgatish
				E1.03.6	Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning xizmat ko'rsatishga oid kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish
		E2.6	O'quvchilarning amaliy faoliyatini nazorat qilish, xizmat sifati va xavfsizlikni ta'minlash	E2.01.6	O'quvchilarning xizmat ko'rsatish jarayonidagi topshiriqlarni bajarishini nazorat qilish va xizmat intizomiga rioya etilishini ta'minlash
				E2.02.6	Amaliy mashg'ulotlar jarayonida mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in xavfsizligi va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish talablariga rioya etilishini ta'minlash
				E2.03.6	O'quvchilarning amaliy faoliyati natijalarini baholash, mijozlar bilan ishlashdagi xatolarni tahlil qilish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida kasb ta'lim ustalari	
Mashg'ulot nomining kodi:	23202	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yilgan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo'yilgan talablar:	O'quv, ishlab chiqarish amaliyotlariga mos oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, o'rta yoki boshlang'ich kasbiy ta'lim darajasidagi ma'lumot, mos sohada ishlab chiqarishda kamida 3 yil ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;</p> <p>o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) bakalavriat 2) o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Kasb ta'limi ustasi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	6	Arxitektura va qurilish sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	Baliq xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari

	6	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida boshqa kasb ta'lim ustalari
	6	Muhandislik va muhandislik ishi sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	O'rmon xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	Qishloq xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	Transport xizmatlari sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	Xizmat ko'rsatish sohasida kasb ta'lim ustalari
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
<b>A1.6</b> Amaliy kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish va olib borish	<b>A1.01.6</b> Ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlariga oid amaliy mashg'ulotlarni tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida tashkil etish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Amaliy mashg'ulotlar uchun ish rejasi va jadvalini tuzish
		2. Mashg'ulot joyi va uskunalarni tayyorlash
		3. O'quvchilarni ishlab chiqarish topshiriqlari bilan tanishtirish
		4. Amaliy ishlarni ketma-ketlikda tashkil etish
		5. Mashg'ulot natijalarini hujjatlashtirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Amaliy ta'lim jarayonini rejalashtirish
		Ishlab chiqarish muhitida mashg'ulotlarni boshqarish
		O'quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish
		Ta'lim dasturlarini amaliyotga tatbiq etish
	O'quv jarayonida vaqtni samarali taqsimlash	
	<b>Bilimlar:</b>	
	Tasdiqlangan ta'lim dasturlari va o'quv rejalar	
	Ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyalari asoslari	
	Amaliy ta'limni tashkil etish metodikasi	
	Mehnatni muhofaza qilish talablari	
	O'quv-ishlab chiqarish hujjatlari yuritish tartibi	
	<b>A1.02.6</b> O'quvchilarga texnologik operatsiyalarni, uskunalar va mexanizmlardan xavfsiz hamda samarali foydalanish usullarini amaliy tarzda o'rgatish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Texnologik operatsiyalarni namoyish etish
		2. Uskuna va mexanizmlarni ishga tushirishni ko'rsatish
		3. Xavfsizlik bo'yicha yo'riqnoma o'tkazish
		4. O'quvchilarning amaliy bajarish jarayonini kuzatish
5. Xatolarni aniqlash va tushuntirish		
<b>Ko'nikmalar:</b>		
Texnologik jarayonlarni tushunarli izohlash		
Amaliy ko'rsatma berish		
Xavfsiz ishlash ko'nikmalarini shakllantirish		

		Uskunalaridan samarali foydalanishni o'rgatish
		O'quvchilarning amaliy faoliyatini yo'naltirish
		<b>Bilimlar:</b>
		Texnologik operatsiyalar ketma-ketligi
		Ishlab chiqarish uskunalari va mexanizmlari tuzilishi
		Texnika xavfsizligi qoidalari
		Sanoat sanitariyasi talablari
		Favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi
	A1.03.6 Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. O'quvchilarning amaliy ishlarini kuzatish
		2. Individual topshiriqlar berish
		3. Kasbiy malakalarni mustahkamlash mashqlarini tashkil etish
		4. O'quvchilarning rivojlanish darajasini tahlil qilish
		5. Natijalar bo'yicha fikr-mulohaza berish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Kasbiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish
		O'quvchilarning qobiliyatini baholash
		Amaliy mashg'ulotlarni moslashtirish
		Motivatsiya berish va rag'batlantirish
		Amaliy ta'limda pedagogik yondashuvni qo'llash
		<b>Bilimlar:</b>
		Kasbiy kompetensiyalar mazmuni
		Amaliy ta'limda baholash mezonlari
		O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari
	Kasbiy rivojlanish bosqichlari	
	Ta'lim natijalarini baholash usullari	
	<b>Mas'uliyat mustaqillik:</b> va	1. Tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish, tashkil etish va sifatli o'tkazilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.
		2. Ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarida o'quvchilar tomonidan texnologik operatsiyalar hamda uskunalaridan xavfsiz va samarali foydalanilishi ustidan doimiy nazoratni mustaqil amalga oshirish.
		3. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va sanoat sanitariyasi talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish.
		4. O'quvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish, rivojlantirish hamda baholash natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni ta'minlash.
		5. Amaliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha tashabbus ko'rsatgan holda mustaqil faoliyat yuritish.

A2.6 O'quvchilarning amaliy tayyorgarligi va mehnat faoliyatini nazorat qilish	A2.01.6 O'quvchilarning ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish jarayonini nazorat qilish va texnologik intizomga rioya etilishini ta'minlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish ketma-ketligini tushuntirish va nazorat qilish
		2. Texnologik jarayonlarga rioya etilishini doimiy kuzatib borish
		3. Ish joylarida intizom va tartibni ta'minlash
		4. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tezkor chora ko'rish
		5. Bajarilgan ishlar bo'yicha hisobotlarni yuritish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Nazorat va kuzatuvni samarali tashkil etish
		Texnologik intizomni ta'minlash
		Ishlab chiqarish jarayonida tezkor qaror qabul qilish
		O'quvchilarning ish faoliyatini muvofiqlashtirish
		Amaliy jarayonlarda muammolarni aniqlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlari
		Texnologik reglamentlar va yo'riqnomalar
	Mehnatni tashkil etish asoslari	
	Amaliy ta'limni boshqarish metodlari	
	O'quv-ishlab chiqarish hujjatlari yuritish tartibi	
	A2.02.6 Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilinishini ta'minlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1.Xavfsizlik bo'yicha dastlabki va joriy yo'riqnomalar o'tkazish
		2.Ish joylarida xavfli omillarni aniqlash
		3. Himoya vositalaridan foydalanilishini nazorat qilish
		4. Favqulodda holatlarda harakatlarni tashkil etish
		5. Xavfsizlikka oid hujjatlarni yuritish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		1. Xavfsizlik qoidalarini tushunarli yetkazish
		2. Xavf-xatarlarni baholash
3.Favqulodda holatlarda tezkor harakat qilish		
4.Sanitariya-gigiyena talablarini amaliy qo'llash		
5.Xavfsiz ish muhitini tashkil etish		
<b>Bilimlar:</b>		
Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi normativ hujjatlar		
Sanoat xavfsizligi qoidalari		
Sanitariya-gigiyena talablari		
Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi		
Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari turlari		
	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1. O'quvchilarning bajarilgan ishlarini tekshirish	
	2. Baholash mezonlari asosida tahlil o'tkazish	
	3. Xatolarni aniqlash va sabablarini tushuntirish	
	4. Takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish	
5. Baholash natijalarini rasmiylashtirish		

	A2.03.6 O'quvchilarning amaliy faoliyati natijalarini baholash, xatolarini tahlil qilish va kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish	<b>Ko'nikmalar:</b>	
		Amaliy faoliyatni xolis baholash	
		Tahliliy fikrlash	
		Konstruktiv fikr-mulohaza berish	
		O'quvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash	
		Baholash jarayonini boshqarish	
		<b>Bilimlar:</b>	
		Baholash mezonlari va indikatorlari	
		Kasbiy kompetensiyalar talablari	
		Amaliy ta'limda baholash usullari	
	Kasbiy xatolarni tahlil qilish metodlari		
	Ta'lim sifatini oshirish yondashuvlari		
	<b>Mas'uliyat mustaqillik:</b>	<b>va</b>	1. O'quvchilarning ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishi, texnologik intizomga rioya etilishi hamda belgilangan me'yor va reglamentlar asosida ish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.
			2. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish va doimiy nazoratni amalga oshirish.
3. O'quvchilarning amaliy faoliyati natijalarini baholashda xolislik va shaffoflikni ta'minlash, aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish hamda kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan tavsiyalar berish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish.			
4. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, xavfli holatlar va intizom buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish hamda ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda mustaqil faoliyat yuritish.			
5. Amaliy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning kasbiy malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda belgilangan natijalarga erishish uchun tashabbus ko'rsatgan holda mustaqil va mas'uliyatli faoliyat olib borish.			
<b>Texnik va/yoki texnologik talab:</b>		Noutbuk yoki shaxsiy kompyuter; Proyektor yoki interaktiv doska; Internet; Trenajyor va simulyatorlar; Zamonaviy uskunalar, stanoklar, elektron boshqaruv tizimlari va mexanik qurilmalarni ishlatishni bilishi; texnik hujjatlar (chizmalar, sxema va pasportlar) bilan ishlay olish; elektr uskunalari va energiya ta'minoti tizimlarini tushunishi;	

	<p>quvvat manbalari bilan xavfsiz ishlash qoidalarini bilishi;</p> <p>mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi;</p> <p>avariyaviy holatlarda to'g'ri harakat qila olishi;</p> <p>ishlab chiqarish tartibini aniq bajarish;</p> <p>texnologik tartiblar va standartlarga rioya qilish;</p> <p>ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha takliflar berish qobiliyati;</p> <p>yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va qo'llash;</p> <p>talabalarni amaliyotga tayyorlash uchun texnologik jarayonlarni soddalashtirib tushuntira olish;</p> <p>talabalarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish.</p>
--	---

Kasbning nomi:	Qishloq xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari	
Mashg'ulot nomining kodi:	23202	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yilgan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo'yilgan talablar:	O'quv fani (amaliyot)lariga mos oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti yoki o'rta kasbiy ta'lim darajasidagi ma'lumot, avtomobil haydashni o'rgatuvchi-yo'riqchi guvohnomasi, avtotransport vositalarini boshqarish bo'yicha kamida 3 yil amaliy ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rish;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;</p> <p>o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'asis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) bakalavriat 2) o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Kasb ta'limi ustasi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	6	O'rmon xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	Qishloq xo'jaligi sohasida kasb ta'lim ustalari
	6	Xizmat ko'rsatish sohasida kasb ta'lim ustalari

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6 Qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida amaliy kasbiy ta'limni tashkil etish va olib borish	B1.01.6 Qishloq xo'jaligi (dehqonchilik, chorvachilik, issiqxona, agroservis) yo'nalishlariga oid amaliy mashg'ulotlarni tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida tashkil etish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Amaliy mashg'ulotlar uchun ish rejasi va jadvalini ishlab chiqish.
		2. Mashg'ulot o'tkaziladigan yer maydonlari, ustaxona va xo'jalik obyektlarini tayyorlash.
		3. O'quvchilarni amaliy topshiriqlar va ish ketma-ketligi bilan tanishtirish.
		4. Amaliy ishlarni belgilangan texnologik jarayonlarga muvofiq tashkil etish.
		5. Mashg'ulot natijalarini hisobga olish va rasmiylashtirish.
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Amaliy ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish.
		Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish muhitida mashg'ulotlarni boshqarish.
		O'quvchilarning amaliy faoliyatini muvofiqlashtirish.
		Ta'lim dasturlarini real ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirish.
		Vaqt va resurslardan samarali foydalanish.
		<b>Bilimlar:</b>
		Tasdiqlangan ta'lim dasturlari va o'quv rejalari.
		Qishloq xo'jaligi yo'nalishlarining asosiy texnologik jarayonlari.
	Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.	
	O'quv-ishlab chiqarish hujjatlarini yuritish tartibi.	
	Mehnatni muhofaza qilish asoslari.	
	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1. Qishloq xo'jaligi texnika va uskunalarning ishlash tamoyillarini namoyish etish.	
	2. Texnologik operatsiyalarni amaliy tarzda bajarib ko'rsatish.	
	3. O'quvchilarning mustaqil bajarish jarayonini kuzatish va yo'naltirish.	
	4. Xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.	
	5. Xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tushuntirish berish.	
	<b>Ko'nikmalar:</b>	
Texnologik jarayonlarni amaliy tushuntirish.		
Qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanishni o'rgatish		
Xavfsiz ishlash ko'nikmalarini shakllantirish		
O'quvchilarning amaliy ishlarini boshqarish		
Ish samaradorligini oshirishga yo'naltirish		
B1.02.6 O'quvchilarga qishloq xo'jaligi texnologiyalari, texnika va uskunalardan xavfsiz hamda samarali foydalanish usullarini amaliy tarzda o'rgatish		

		<b>Bilimlar:</b>
		Qishloq xo'jaligi texnologiyalari asoslari.
Texnika va uskunalarning tuzilishi va ishlash prinsiplari.		
Texnika xavfsizligi va sanoat sanitariyasi qoidalari.		
Agrotexnik talablar va me'yorlar.		
Favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi.		
B1.03.6 Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1. O'quvchilarning amaliy ishlarini kuzatish va tahlil qilish.	
	2. Kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlovchi topshiriqlar berish.	
	3. Individual yondashuv asosida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.	
	4. O'quvchilarning rivojlanish darajasini baholash.	
	5. Natijalar bo'yicha tavsiyalar berish.	
	<b>Ko'nikmalar:</b>	
	Kasbiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish.	
	O'quvchilarning qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish.	
	Amaliy mashg'ulotlarni moslashtirish.	
	Rag'batlantirish va motivatsiya berish.	
	Pedagogik muloqotni samarali olib borish.	
	<b>Bilimlar:</b>	
	Kasbiy kompetensiyalar va malaka talablari.	
	Amaliy ta'limda baholash mezonlari.	
	O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari.	
	Kasbiy rivojlanish bosqichlari.	
	Ta'lim natijalarini baholash usullari.	
<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Qishloq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida sifatli va samarali tashkil etilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.	
	2. Amaliy ta'lim jarayonida qishloq xo'jaligi texnologiyalari, texnika va uskunalardan xavfsiz foydalanilishini ta'minlash bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish.	
	3. O'quvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish natijalari uchun javobgarlikni ta'minlash.	
	4. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy, texnologik va xavfsizlikka oid muammolarni mustaqil aniqlash va bartaraf etish.	
	5. Amaliy kasbiy ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surish va ularni amalga oshirishda mustaqil faoliyat yuritish.	

